

**XORIJIY TILNI RIVOJLANTIRISH METODLARI VA TEXNIKASI**

*Ilmiy rahbar: Pardayeva Aziza*

*Talaba: Iskandarova Mohinur*

**Annotatsiya.** *Hozirgi kunda xorijiy tilni rivojlantirish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bois, ushbu maqolada xorijiy tillarni rivojlantirishda yangi metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritilib, ularning tilni o'zlashtirishdagi imkoniyatlarining ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *metod, xorijiy til, rivojlanish, grammar-translation, suggestopedia, the silent way.*

**Abstract.** *Nowadays, the development of a foreign language is one of the urgent problems. So, this article enlightens the use of modern methods and pedagogical technologies in the development of foreign languages and reveals the importance of their opportunities in language acquisition.*

**Key words:** *method, foreign language, development, grammar-translation, suggestopedia, the silent way.*

Bugungi globallashayotgan davrda insoniyatning zamon bilan hamnafas qadam tashlayotgani hammaga ma'lum. Shu bois, turli soha vakillari, xususan, chet tili sohasidagi mutaxassislar tilni yanada rivojlantirish maqsadida samara beradigan metodlar va texnikalar ishlab chiqishmoqda.

Hozirgi kunda tilni bilishga bo'lgan talab ortib borayotgani sari, uni o'z ona tilidek mukammal o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyot ham yuqorilab bormoqda. Bunda yangi metod va usullardan foydalanish ham muhim ham samaralidir.

Quyida sanab o'tilgan metod va texnikalar orqali til o'rganuvchilar uchun til o'zlashtirish jarayonidagi ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga ishonamiz.

1. "Grammar - Translation" metodi.

Mazkur metod o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmasi mashg'ulotlari

jarayonidagi faolliklarini ta'mimlab, ularni erkin fikr yuritishga, idrok qilish faoliyatini, dunyoqarashini rivojlantirishga hamda ularning lug'at boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.

"Grammar - Translation" metodi birinchi bo'lib Qo'shma Shtatlarda kiritilgan bo'lib, bu metod chet tilidagi turli xil mavzudagi matnlarni o'z ona tilga tarjima qilish uchun eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Chet tilini sifatli o'zlashtirishdagi bu texnika ingliz tilini ikkinchi til sifatida egallash uchun grammatik qoidalarni ko'rsatadigan jummalarni o'qish va tarjima qilishga qaratilgan. Bu metod o'quvchilarga o'qish jarayonidagi ko'zlangan maqsadlariga oson erishishga, asosan, chet tilidagi har qanday jummalarni tezda va samarali tushunib olishga yordam beradi va bu metod orqali barcha til o'rganuvchilar va tilni bilish qobiliyatini yanada rivojlantirish yo'lidagi o'quvchilar qimmatli vaqtlarini tejash imkoniyatlariga ham ega bo'lishlari shubhasiz.

### 2. "Suggestopedia" metodi.

Bu metod orqali o'quvchilar ingliz tilidagi gapirish hamda yozish ko'nikmalarini yuqori darajada o'stirishlari mumkin. Ushbu metoddan foydalanish biroz murakkab jarayon bo'lsada, bilim egallash jarayonidagi tinch muhit samarali yordam beradi. Bu metod shunday maqsadni o'z oldiga qo'yganki, bu chet tilini o'zlarida shakllantirayotgan bolalarda stress va qo'rquv hissini yo'qotishdir.

Ushbu metod orqali tilni rivojlantirayotgan o'quvchilarga bir qancha talablar qo'yiladi. Xususan, ular o'zlariga qulay va dars jarayoniga mos keluvchi sharoitlar yaratishlari zarur, bu esa bilimni yanada e'tibor bilan chalg'imasdan o'rganishga hissa qo'shadi. Bundan tashqari sinfxona ko'rinishi haddan tashqari yorug' bo'lmasligi talab qilinadi.

Bu metodning asosiy nuqtasi shuki, bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan vazifalarni sokin musiqa ostida bajaradilar. Bu o'qitish texnikasi shunisi bilan o'zlashtirishda murakkab hisoblanadi. Keyingi bosqichda bolalar 2 daqiqa mobaynida ko'zlari yumilgan holda turli xil obyektlarni tasavvur qilishlari kerak. Shundan so'ng ular o'z rollarini yo'qotmagan holda kichik matn yozadilar. Bunda ular tasavvuridagi obyekt tilidan talab qilingan bir qancha vazifalarni

bajarishlari kerak bo'ladi.

### 3. "The Silent way" metodi.

Bu metoddan dars davomida foydalanish o'quvchining chet tilini o'zlashtirishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi. Bu jarayonda eng ko'p o'quvchi asosiy nishonda bo'ladi. Shu sababli bu metod uning til sohasidagi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etadi. "The Silent Way" o'quvchilarga keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunda o'quvchilarning o'zlari mas'ul hisoblanib, mustaqil o'rganishi uchun bolalarning o'zlari mustaqil holda harakat qilishadi.

O'qituvchi bir marta ko'rsatib beradi va keyin o'quvchilarga o'zlari bajarishlari uchun imkoniyat beriladi. O'qituvchi til strukturasi o'rgatishda rangli plastik kartalardan so'z yoki gap qismlarini namoyish qilib o'rgatishda foydalanishi mumkin. O'qituvchi iloji boricha kam gapirishi va kam ko'rsatib berishi kerak. O'qituvchi to'g'ri yoki xato degan ma'noda boshini silkishi orqali o'quvchilarni to'g'ri javob berishga undaydi.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, chet tilini o'rganishda turli xil metod va texnikalardan foydalanish o'z o'rnida samarali foyda beradi va keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Bundan anglashiladiki, chet tilini rivojlantirishda yuqorida sanab o'tilgan metod va texnikalar o'quvchilarning til o'zlashtirish jarayoniga o'z hissasini sezilarli darajada qo'shadi. Demak, chet tilini rivojlantirishda metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tursunov Umidjon Xalim o'g'li "Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari".
2. Xasanova Iroda Tavakallovna "Modern approaches in teaching English speech and language competencies" 2022.
3. <https://circletranslations.com/blog/grammar=translation-methods>.
4. English Speaking Nation: Secondary Teacher Training Program. Part1 Foundation of TESOL.
5. Islomova Gulyorxon Umidjon qizi "Chet tillarini o'rgatish va undagi samarali metodlardan foydalanishning o'rnini".